



## BEMORNING SHAXSIY GIGIYENASI

Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

**Asqarova Dilfuza Sharifboyevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hamshira yoki bemorlarni parvarishlovchilar tomonidan bemorning shaxsiy gigiyenasini ta'minlash usullari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bemor, gigiyen, hamshira.

Qabulxona bo'limining tibbiyat hamshirasi bemorni sanitariya tozalovidan o'tkazishdan oldin uning badan terisini ko'zdan kechiradi. «Pedikulyoz» (bitliqilik)ni aniqlaydi. Bitlar boshda, chov va kiyim choklarida uchrashi mumkin. Bitlar 1,5 m m .dan 4 m m gacha o 'lchovda bo'ladi, tuxumlari esa 0 ,6 — 1 mm dankam bo'lmaydi, sirkalar uzunchoq shaklda bo'lib, soch tanasining ildiz qismiga yopishqoq moddasi bilan yopishib oladi. Bosh va kiyim bitlari og 'ir yuqumli kasalliliklar — toshmali hamda qaytalama tifning tashuvchisi hisoblanadi. Shuning uchun tibbiyat hamshirasi bit yoki sirka aniqlanganda zudlik bilan dezinfeksiya o'tkazishi zarur.

Pedikulyoz aniqlanganda tibbiyat hamshirasining harakat algoritmi:

1. Hamshira ro'mol, xalat, qo'lqop kiyadi.
2. Bemorni kleyonka solingan kushetkaga o'tqazadi (agar uning ahvoli yengil bo'lsa).
3. Bemorga bajariladigan muolajaning zarurligini tushuntiradi.
4. Bemor sochlariiga pedikulyozga qarshi vosita bilan ishlov beradi.
5. Bemor boshini 20 daqiqa ro'mol bilan o'rav qo'yadi.
6. Bemorsochi iliq suv bilan yuvilib, artiladi va 10— 15 daqiqa davomida mayda tishli taroqda taraladi.
7. Kiyimlar zararsizlantirish uchun qopga joylanadi (tibbiyat hamshirasining xalati ham).
- 8 .Qo'lqoplar yechilib, qo'llar yuviladi.



Gigiyenik vanna va dash qabul qilish. Bemor ahvoldidan kelib chiqqan holda sanitariya tozalovi to'liq (vanna, dush) yoki qisman (artish, yuvintirish) bolishi mumkin.

Muolaja algoritmi:

1. Hamshira qo'lqop kiyadi.
2. Yuvinish xonasi tayyorlanadi (harorati 25—28 °C darajada).
3. Vanna sathi mochalka yoki cho'tka yordamidasovun bilan tozalanadi. So'ng 0,5% li xlorli ohak, yoki 2% li xloramin (B) eritmasi yordamida zararsizlantirilib, keyin issiq suv bilan chayiladi.
4. Vanna teshigi tiqin bilan berkitilib, suv bilan to'ldiriladi (harorat 35 -37 °C bo'lishi kerak).
5. Bemorga vannada qulay holatni egallashiga yordam beriladi, suv sathi to'sh suyagigacha bo'lib, sirpanib ketmaslik uchun oyoq tagiga moslama qolyiladi.
6. Qo'lqoplar yangilanadi.
7. Bemorning boshi yuviladi, tanasining ko'p terlaydigan qismlari (qo'lтиq osti, ko'krak osti bezlari, chov sohasi)ni mochalka yordamida yuviladi.
8. Vanna qabul qilish muddati 20 - 25 daqiqa.
9. Bemorning vannadan chiqishiga yordam berib, badani yum shoq sochiq bilan quritib artiladi va kiyintiriladi.
10. Vanna ichidagi suv oqizib yuborilgach, zararsizlantiruvchi modda bilan chayib, issiq suv bilan yuviladi.
11. Mochalkalar 30 daqiqacha 3% li xloramin eritmasiga solib qo'yiladi, so'ng chayib quruq holda yopiq idishda saqlanadi.
12. Vannaxona tozalanadi, qo'lqop yechiladi. Gigiyenik dush qabul qilish uchun bemor vanna ichiga qo'yilgan stul yoki maxsus moslamaga o'tqaziladi va muolaja yuqoridagi tartibda olib boriladi. Qisman tozalash uchun hamshira qo'liga qo'lqop kiyadi. Bemorning tagiga kleyonka solib, tanasini artish uchun nam- langan oqliq tayyorlaydi. Avval tananing oldingi qismi: ko'krak, qo'llar, qo'lтиq osti sohasi artiladi, so'ngra kurak artilib, choyshabga o'rab qo'yiladi.

Xuddi shu tarzda qorin, oyoqlar, yelka sohalari artiladi. Muolaja oxirida kleyonka yig'iladi, qo'lqop yechiiadi. Muolaja davomida hamshira ishtirok etishi shart.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M .A .Fozilbekova, N .A .Nurmatova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari. - «O'qiluvchi», 2002.
2. Q .S.Inamov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007.
3. T .I.Umarova, M .A .Qayumova, M .Q .Ibrohimova. Hamshiralik ishi. - T., «Zarqalam», 2005.
4. M .I.Musaeva , A .Q .Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitalogiyasi